

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

ACHILOV TELMAN SA'DULLAYEVICH

**HARBIY TARIX FANINI O'QITISH ORQALI TALABALARDA
VATANPARVARLIK TUYG'USINI QAROR TOPTIRISH METODIKASI**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Chirchiq – 2024

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Achilov Telman Sa'dullayevich

Harbiy tarix fanini o'qitish orqali talabalarda vatanparvarlik tuyg'usini qaror toptirish metodikasi3

Ачиллов Телман Саъдуллаевич

Методика определения чувства патриотизма у студентов на уроках военной истории25

Achilov Telman Sadullayevich

Methodology for determining the feeling of patriotism among students in military history lessons49

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....53

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

ACHILOV TELMAN SA'DULLAYEVICH

**HARBIY TARIX FANINI O'QITISH ORQALI TALABALARDA
VATANPARVARLIK TUYG'USINI QAROR TOPTIRISH METODIKASI**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Chirchiq – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B.2024.1.PhD/Ped.7008 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Chirchiq davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.cspu.uz) hamda «ZiyoNet» Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xodjamqulov Umid Negmatovich,
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Rasmiy opponenlar:

Maxkamov Ulfat Ilhamovich,
pedagogika fanlari doktori, professor

Usmanxodjayev Tal’at Saidovich,
pedagogika fanlari doktori, professor.

Yetakchi tashkilot:

Navoiy davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil “___” _____ kuni soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko‘chasi, 104-uy). Tel.: (99870) 712-27-55; faks: (99870) 712-45-41; e-mail: chdpu_kengash@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____) raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko‘chasi, 104-uy. Tel.: (99870) 712-27-55; faks: (99870) 712-27-55.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “___” _____ kuni tarqatildi.

(2024-yil “___” _____dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

S.M.Matchonov,
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi o‘rinbosari, p.f.d., professor

F.T.Rajabov,
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi, g.f.f.d. (PhD), dotsent

V.B.Fayziyev,
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, b.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda yoshlar hayotini muhofaza etish, sog'ligini mustahkamlash, intellektual salohiyatini oshirish, ularning o'sib kelayotgan organizmi ish qobiliyatini funktsional takomillishtirish asosida ta'lim olish imkoniyatlarini oshirish eng muhim vazifalardan biri sanalmoqda. Mazkur vazifalar ijrosi global xavfsizlikka qarshi tahdidlar ortib borayotgan bir sharoitda yoshlarda vatanparvarlik ko'nikmalarini rivojlantirish, milliy-ma'naviy ruhiyatni o'stirish, Vatan taqdiriga ongli munosabatda bo'lish kabi masalalar bilan dialektik aloqadorlik kasb etadi. Ayni paytda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan hamda salomatlikni mustahkamlashga oid tadbirlar, vatanparvarlik tarbiyasi samaradorligini oshirish kontsepsiyalari, shuningdek, tarix fanlarini oqish jarayonida talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayonlarni tizimli tashkil etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyoning eng rivojlangan mamlakatlarida talabalarda vatanparvarlik ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga qaratilgan ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda millati, tili va e'tiqodidan qat'iy nazar, talabalarda Vatanga sadoqat tuyg'usini shakllantirish, ularni o'z fuqarolik burchi va konstitutsion majburiyatlarini bajarishga, jamoat va davlat manfaatlarini himoya qilishga qodir shaxslar etib tarbiyalashga e'tibor qaratilmoqda. Yaponiyada «yapon mo'jizasi»ga asoslangan ta'lim-tarbiya jarayonida harbiy vatanparvarlik asoslarini o'rgatish yapon ta'lim tizimining o'ziga xos jihatini tashkil qiladi. Darhaqiqat, talabalarga tarix fanlarini o'qitish jarayonida dunyoda ro'y berayotgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda yondashish, har qanday murakkab vaziyatlarda tezkor va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish, yoshlarning siyosiy madaniyatini oshirishga nisbatan zarurat ortmoqda.

O'zbekiston Respublikasining strategik vazifalaridan biri yoshlarga oid davlat siyosatini tizimli yo'lga qo'yish orqali Vatan ravnaqiga hissa qo'shadigan jismoniy sog'lom va ma'naviy barkamol, vatanparvar shaxsni voyaga yetkazishdan iborat. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun o'quv ishlarini rejalashtirishda va samarali olib borishda yangicha hamda ijodiy tashabbuskorlik bilan yondashish talab etiladi. Demak, talabalarning tarix fanlaridan dars mashg'ulotlarida ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan yangicha metodika va texnologiyalarni ishlab chiqish zarurati ortmoqda. Talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga doir ishlar samaradorligini oshirish va faollashtirish, bu boradagi ta'lim-tarbiya ishlariga mamlakat fuqarolarini, davlat va nodavlat-notijorat tashkilotlarini hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini yanada faol jalb etish va yoshlar ongiga vatanparvarlik, mardlik tuyg'ularini singdirish dolzarb vazifalardan biriga aylanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning "Biz shu paytgacha yoshlarimizni vatanparvarlik tuyg'usini qaror toptirish tizimini zamonaviy ilmiy asosda yo'lga qo'ya olmadik. Yurtimizda bolalar va o'smirlarning vatanparvarlik tashkilotlari mavjud emas. Vaholanki, xorijiy mamlakatlarda allaqachon o'rganishimiz va joriy etishimiz zarur bo'lgan bunday ijobiy

tajriba mavjud”¹ degan fikrlari bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etadi va o‘z navbatida, talabalarni vatanparvarlik tuyg‘usini qaror toptirish tizimini takomillashtirish zaruratini asoslaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “O‘zbekiston Respublikasining 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2021-yil 6-apreldagi PF-6199-son “Turizm, sport va madaniy meros sohalarida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 5-iyuldagi PF-5106-son “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida” Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 10-iyuldagi 369-son “Yoshlarni vatanparvarlik tuyg‘usini qaror toptirish ishlari samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 23-fevraldagi 140-son “Yoshlarni harbiy- vatanparvarlik tuyg‘usini qaror toptirish kontsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda mavzuga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy shakllantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarildi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tadqiqot ishiga O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimovning asarlarida yoshlarni vatanparvarlik va ma‘naviy-axloqiy tarbiyasini yuksaltirishga qaratilgan ilmiy-nazariy qarashlari, mamlakatimiz ma‘naviy hayotining yangi bosqichini boshlab bergan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev asarlari, ma‘ruza va nutqlaridagi yoshlarni har tomonlama uyg‘un kamol toptirish borasidagi g‘oyalari ilmiy-metodologik asos bo‘lib xizmat qildi.

Mamlakatimizda o‘zbek xalqining Shiroq, Spitamen, To‘maris kabi siymolarning qahramonligini; Najmiddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Amir Temur vatanparvarligini o‘ziga xos ma‘naviy-axloqiy ideal sifatida ulug‘lashga, “Temur tuzuklari” singari harbiy pandnomalarning vatanparvarlik mazmuni Z.Alimardonov, I.Inoyatov, N.Safarov, O.Abdurasulov, R.Abdullaev, M.Abilov, A.Redjaboev, A.Ikramov, B.To‘ychiev, B.Ergashev, B.Negmatov, V.Kaloshin, R.Kurbanov, S.Nishonova, Ch.Nasriddinov, E.Kalkanov, J.Ramatov, K.Usmanov, K.Xaydarov; mamlakatda sport tizimi va tarix fanlarini rivojlantirish, talabalarning intellektual barkamolligini ta‘minlashga qaratilgan texnologiyalar, tarix fanlaridan dars mashg‘ulotlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida takomillashtirish masalalari M.Aliyev, F.Q.Axmedov, T.Usmonxo‘jayev, M.D.Raxmatullayeva, J.Yo‘ldoshev, E.Seytxalilov, K.Yarashev, A.E.Isimova, R.A.Qosimova, K.Boyazitov, V.Qorayev, Sh.Djumaqulov kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

¹Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-tom. – Toshkent: O‘zbekiston, 2020. – B.123

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan G.Alekseyev, A.Kurvina, A.Leontyev, G.A.Atanov, K.A.Marinchenko, L.N.Vashenko, M.T.Gromkova, M.D.Ilyazova, Ye.I.Isayev, V.G.Krisko, V.K.Melnik, A.M.Novikov, Yu.P.Pavarenkov, N.A.Rakova, M.I.Stankin, A.I.Chmil, N.V.Uysimbayeva, A.Xutorskoy, A.Obuxov, O.Merzlyakova, A.Gubaydullin, O.Lebedev, V.Tagirov, I.Zimnyaya, N.Fedotova, T.TSunnikova, V.SHadrikovlarning ilmiy izlanishlarida vatanparvarlik tarbiyasi, uning usul va shakllari, texnologiyalari, tarix fanlari vositasida talabalarning axloqiy sifatlarini tarkib toptirish muammolari yoritilgan.

Xorijda ham mazkur yo'nalish bo'yicha olimlar tomonidan qator ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lib, H.Gibb, B.Manz, V.Maurizio A.Mustafa, M.Roger, K.Steven kabilarning tadqiqod ishlarida vatanparvarlik tuyg'usini qaror toptirish va uning vositalari, usullari va yo'llari yoritilgan.

Talabalarda tarix fanlarini o'qitish orqali vatanparvarlik tuyg'usini qaror toptirish mexanizmlarini ishlab chiqish, texnologiyalarini takomillashtirish hamda pedagogik imkoniyatlarini oshirishga bo'lgan zarurat mazkur tadqiqot ishining mavzusini belgilab berdi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Chirchiq davlat pedagogika universitetining FZ-245/0001874-sonli "Pedagogik ta'lim innovatsion klasterining ilmiy-nazariy asoslari va amaliy mexanizmlari" mavzusidagi ilmiy-amaliy tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi talabalarda harbiy tarix fanini o'qitish orqali vatanparvarlik tuyg'usini qaror toptirish metodikasini takomillashtirish hamda pedagogik imkoniyatlarini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

talabalarda harbiy tarix fanini o'qitish orqali vatanparvarlik tuyg'usini qaror toptirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlashtirish;

talabalarda harbiy tarix fanini o'qitish orqali vatanparvarlik tuyg'usini qaror toptirishning amaliy mexanizmlarini takomillashtirish;

talabalarda harbiy tarix fanini o'qitish orqali vatanparvarlik tuyg'usini qaror toptirishning pedagogik modelini takomillashtirish;

globallashtirish davrida talabalarda vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalashning amaliy-texnologik tizimini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'ekti talabalarda tarix fanlarini o'qitishda vatanparvarlik tuyg'usini qaror toptirishning pedagogik imkoniyatlarini takomillashtirish jarayoni belgilanib, pedagogik tajriba-sinov ishlariga Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Buxoro davlat universiteti, Toshkent davlat pedagogika universiteti va Farg'ona davlat universitetlarining 720 nafar respondent-talabalari jalb etilgan.

Tadqiqotning predmetini talabalarda harbiy tarix fanini o'qitish orqali vatanparvarlik tuyg'usini qaror toptirishning mazmuni, shakllari va metodlari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil, pedagogik kuzatuv, retrospektiv tahlil, modellashtirish, suhbat, intervyu, test, pedagogik eksperiment, matematik-statistik tahlil etish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

talabalarda harbiy tarix fanini o'qitish orqali vatanparvarlik tuyg'usini qaror toptirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari murakkab pedagogik tizimda metod, vosita, shakl va mazmun komponentlarining o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini retrospektiv davriyligiga ko'ra ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish asosida aniqlashtirilgan;

talabalarda harbiy tarix fanini o'qitish orqali vatanparvarlik tuyg'usini qaror toptirishning amaliy mexanizmlari jarayon samaradorligini aniqlashda ko'rsatkichlar va baholash mezonlarini ta'lim komponentlarining gorizont va vertikal ta'sir ko'rsatish xususiyatlari va izchillik tamoyillariga ta'lim resurslarini tashkil etishning integral tizimlari orqali integratsiyalash asosida takomillashtirilgan;

talabalarda harbiy tarix fanini o'qitish orqali vatanparvarlik tuyg'usini qaror toptirishning pedagogik modeli sub'ektlarning faoliyat algoritmi hamda motivatsion jarayonlar izchilligini ta'minlash mexanizmlarini vitagen ta'lim integratsiyasini ta'minlashning ustuvor yo'nalishlariga muvofiq joriy etish asosida takomillashtirilgan;

sub'ektlar induvidual faoliyatini tizimlashtirish va uni texnologik jarayonlar tuzilmasi sifatida tashkiliy-metodik jihatdan takomillashtirish asosida talabalarda harbiy tarix fanini o'qitish orqali vatanparvarlik tuyg'usini qaror toptirishning amaliy-texnologik tizimini takomillashtirishga oid metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

talabalarda harbiy tarix fanini o'qitish orqali vatanparvarlik tuyg'usini qaror toptirishning metodik ta'minoti ishlab chiqilgan;

talabalarda harbiy tarix fanini o'qitish orqali vatanparvarlik tuyg'usini qaror toptirishning pedagogik-psixologik omillari aniqlashtirilgan hamda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish samaradorligini oshirishga xizmat qilgan;

talabalarida harbiy tarix fanini o'qitish orqali vatanparvarlik tuyg'usini qaror toptirishga yo'naltirilgan tarbiyaviy faoliyatning modernizatsiyalashgan shakllari aniqlashtirilgan va amaliyotga tatbiq etilgan;

talabalarda harbiy tarix fanini orqali vatanparvarlik tuyg'usini qaror toptirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoga metodologik, pedagogik, psixologik yondashuvlarga hamda talabalarda tarix fanlarinio'qitish orqali vatanparvarlik tuyg'usini qaror toptirishga doir milliy tajriba, respublikamiz va chet ellik olimlar, oliy ta'lim muassasalarida tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishga doir tadqiqot vazifalariga mos keluvchi, o'zaro bir-birini to'ldirib boruvchi tadqiqot metodlarining qo'llanilganligi; tahlil va tadqiqot tavsifining miqdor, shuningdek, sifat jihatidan ta'minlanganligi; tajriba-sinov ishlarining reprezentativligi hamda olingan natijalarning matematik-statistik tahlil metodlari yordamida qayta ishlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati talabalarda tarix fanlarini o'qitish orqali vatanparvarlik tuyg'usini qaror toptirish orqali ularda ma'naviyatini rivojlantirishga oid nazariy yondashuvlar va nazariy asoslarning boyitilganligi; talabalarining vatanparvarlik ruhida tarbiyalanganlik darajasini aniqlash mezonlari va ko'rsatkichlari hamda tadqiqot muammosining ijobiy yechimini ta'minlovchi ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati talabalarda tarix fanlarini o'qitish orqali vatanparvarlik tuyg'usini qaror toptirishda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish jarayonini samarali loyihalash mexanizmlarining takomillashtirilganligi, talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning diagnostik tizimini ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Talabalarida harbiy tarix fanini orqali vatanparvarlik tuyg'usini qaror toptirishning pedagogik imkoniyatlarini takomillashtirish borasida olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

murakkab pedagogik tizimda metod, vosita, shakl va mazmun komponentlarining o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini retrospektiv davriyligiga ko'ra ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish asosida aniqlashtirilgan talabalarda harbiy tarix fanini o'qitish orqali vatanparvarlik tuyg'usini qaror toptirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari, jarayon samaradorligini aniqlashda ko'rsatkichlar va baholash mezonlarini ta'lim komponentlarining gorizontaal va vertikal ta'sir ko'rsatish xususiyatlari va izchillik tamoyillariga ta'lim resurslarini tashkil etishning integral tizimlari orqali integratsiyalash asosida takomillashtirilgan talabalarda harbiy tarix fanini o'qitish orqali vatanparvarlik tuyg'usini qaror toptirishning amaliy mexanizmlari bo'yicha taklif va tavsiyalar T.N.Qori-Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpog'iston filialining A1-XT-0-91997-raqamli "Yoshlarni umuinsoniy, milliy va tarixiy qadriyatlar uyg'unligi asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning muammolari" mavzusidagi amaliy loyihasini bajarishda foydalanilgan. (T.N.Qori-Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpog'iston filialining 2023 yil 29 avgustdagi №449-son ma'lumotnomasi) Natijada, umumiy o'rta ta'limda o'quvchilarni vatanparvarlikka oid bilim va ko'nikmalari rivojlantirilgan;

sub'ektlarning faoliyat algoritmi hamda motivatsion jarayonlar izchilligini ta'minlash mexanizmlarini vitagen ta'lim integratsiyasini ta'minlashning ustuvor yo'nalishlariga muvofiq joriy etish asosida takomillashtirilgan talabalarda harbiy tarix fanini o'qitish orqali vatanparvarlik tuyg'usini qaror toptirishning pedagogik modeliga doir takliflar "Kurash turlari va uni o'qitish metodikasi" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 27-martdagi 68-sonli buyrug'i bilan berilgan №68-204-sonli nashr guvohnomasi). Natijada, talabalarda ta'lim jarayonida vatanparvarlikni rivojlantirish mazmuni aniqlashtirilgan;

sub'ektlar individual faoliyatini tizimlashtirish va uni texnologik jarayonlar tuzilmasi sifatida tashkiliy-metodik jihatdan takomillashtirish asosida talabalarda harbiy tarix fanini o'qitish orqali vatanparvarlik tuyg'usini qaror toptirishning amaliy-

texnologik tizimini takomillashtirishga oid metodik tavsiyalar “Kurash turlari va uni o‘qitish metodikasi (milliy kurash)” nomli darslik mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2020-yil 14-avgustdagi 418-sonli buyrug‘i bilan berilgan №418-073-sonli nashr guvohnomasi). Natijada, oliy ta‘lim tizimida barkamol inson shaxsiyatini shakllantirishda harbiy vatanparvarlik sifatlariga qo‘yiladigan talablar va mezonlar to‘g‘risida uslubiy asos yaratildi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 19 ta ilmiy ish, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, shulardan 7 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat bo‘lib, dissertatsiya hajmi 110 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti va tadqiqot usullari aniqlangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalarining ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e‘lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasidagi ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Talabalarda vatanparvarlik tuyg‘usini qaror toptirishning nazariy-metodologik asoslari**” deb nomlangan birinchi bobida talabalarda tarix fanlarinio‘qitish orqali vatanparvarlik tuyg‘usini qaror toptirish pedagogik muammo sifatida tahlil qilingan, talabalarda vatanparvarlik tuyg‘usini qaror toptirishning ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari global aspektda o‘rganilgan, shuningdek, talabalarda tarix fanlarinio‘qitish orqali vatanparvarlik tuyg‘usini qaror toptirish omillari aniqlashtirilgan.

O‘zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning yangicha tizimini ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biriga aylandi. Talabalarda vatanparvarlik tuyg‘usini qaror toptirish tarbiyaning muhim yo‘nalishi bo‘lib, Vatanga, uning madaniy meroslariga, an‘analari va tarixiga muhabbat va hurmatni rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. Jismoniy faollik talabalarda vatanparvarlik tuyg‘usini qaror toptirishda muhim o‘rin tutadi, chunki u sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga, Vatanni himoya qilish uchun zarur bo‘lgan jismoniy fazilatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Vatanparvarlik yosh avlodning jamiyat a‘zosi sifatidagi eng buyuk burchi bo‘lib, oilaga sadoqat, kelajakka ishonch, tarixga hurmat, bugungi

kuniga e'tibor, atrofdagi insonlar manfaatlarini hisobga olish, haqni nohaqdan ajrata olish kabi xususiyatlarni o'zida jamlaydi.

Har qaysi mamlakat, har bir xalq o'zining uzoq va betakror tarixiga ega bo'lganidek, O'zbekistonning, o'zbek xalqining tarixi ham boy va sermazmundir. Tariximiz ildizlari necha-necha ming yillarga borib taqaladi. O'zbekiston xalqining boy va qadimiy davlatchilik tajribasi bor. Hozirgi O'zbekiston hududida dastlabki mustaqil davlat tuzilmalari miloddan avvalgi birinchi ming yillik boshlaridayoq paydo bo'lib, qariyb 3000 ming yil davomida takomillashib borgani va dunyo davlatchiligi rivojida eng yuksak darajaga ko'tarilgani jaxongga ma'lum.

Harbiy tarix fanining oldiga qo'yilgan dolzarb masalalarni quyidagilardan iborat qilib belgilash mumkin:

- tarixiy faktlar asosida talabalarga qurol va qurolli to'qnashuvlarni rivojlanishini asosiy bosqichlari to'g'risida bilim berishi;
- konkret tarixiy masalalarida xalq ommasining va xalq sarkardalarining jang olib borishi san'atini rivojlanishiga qo'shgan hissalarini qo'rsatish;
- O'zbekiston Qurolli Kuchlari tarixini o'rganish;
- talabalarni vatanparvarlik va baynalminalchilik ruhida tarbiyalash, ularni o'z Vatanga sadoqatlilik, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlariga, jangovor qurolli va harbiy san'atiga ishoch, g'alabaga intiluvchanlik tuyg'ularini rivojlantirish.

Talabalarni vatanparvarlik tuyg'usini qaror toptirish bu yosh avlodda o'z mamlakatiga, uning madaniyati, tarixi va an'alariga bog'liqlik va mas'uliyat hissini shakllantirish jarayoni. Bu jarayon Vatanni, uning manfaatlarini, yutuqlarini sevish, hurmat qilish va himoya qilishga qodir fuqarolarni tarbiyalashga qaratilgan chora-tadbirlar tizimidan iborat. Talabalarda vatanparvarlik tuyg'usini qaror toptirish o'z mamlakati tarixi, uning madaniy merosi, an'analari va urf-odatlar bilan tanishishni, shuningdek, hozirgi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy vaziyatni tushunishni o'z ichiga oladi. Ushbu jarayonning bir qismi sifatida bola va kattalar o'z mamlakatining ramzlarini hurmat qilishni, uning jahon madaniyati, iqtisodiyoti va siyosatiga qo'shgan hissasining ahamiyatini tushunish va tan olishni o'rganadilar. Vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, shuningdek, o'z mamlakatini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishga qaratilgan fuqarolik va jamoat tashabbuslarida, shuningdek, mamlakat tarixi va madaniyati bilan bog'liq tadbirlarda, masalan, milliy bayramlar, unutilmas sanalar va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Respublikamiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev o'z nutqlaridan birida ma'naviy-ma'rifiy tarbiya o'ta muhim, nozik va hal qiluvchi masala ekanligini ta'kidlab, bugungi yoshlar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya jarayonida ulardagi vatanparvarlik sifatlarini voyaga yetkazishning yangicha yo'nalishlarini ishlab chiqish vazifalarini kun tartibiga qo'ygan². Bundan kelib chiqib, amaliy fanlar, tarix fanlari jarayonida talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda jamoaviy hamkorlik shakllaridan keng foydalanish lozim bo'ladi. Yurtboshimiz bu jarayonda tarixiy an'analarni hamda xorijiy

² Mirziyoyev Sh. Jismoniy va ma'naviy yetuk yoshlar – ezgu maqsadlarimizga yetishda tayanchimiz va suyanchimizdir / Xalq so'zi, 2017 yil 1 iyul.

mamlakatlar tajribalari umumlashtirish hamda zamonaviy ilmiy asosda yurtimizda bolalar va o'smirlarning vatanparvarlik tashkilotlarini tuzish kabi tavsiyalarni berdi. Shuningdek, talabalarni tarixiy fanlar jarayonida vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning muhim jihati intellektual faoliyatga barqaror motivatsiyani shakllantirish hisoblanadi.

Tarixiy fanlarni o'qitishda talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonini tadqiq qilishda quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish muhim hisoblanadi:

1) tarix fanlarini o'qitish jarayonida talabalarda vatanparvarlik tuygusini qaror toptirishning maqsad va vazifalarini aniqlash, vatanparvarlik tuyg'ularini rivojlantirish va o'z mamlakati tarixi va madaniyatiga hurmat, fuqarolik va mas'uliyatni shakllantirish, shuningdek, jismoniy ko'nikma va qobiliyatlarni rivojlantirish;

2) tarix fanlarini o'qitish jarayonida talabalarda vatanparvarlik tuygusini qaror toptirishni joriy etish uslub va vositalarini aniqlash: bu aqliy va jismoniy faoliyatning turli shakllari, sport tadbirlari, ekskursiyalar tashkil etish, shuningdek, vertual haqiqat texnologiyalaridan foydalanishni o'z ichiga olishi mumkin;

3) tarix fanlarini o'qitish jarayonida talabalarda vatanparvarlik tuygusini qaror toptirish mezonlarini aniqlash: mezon sifatida, talabalarining mashg'ulotlarda faollik darajasi, o'z mamlakati tarixi va madaniyati haqidagi bilimlarini oshirish, fuqarolik faolligi darajasini oshirish;

4) tarix fanlarini o'qitish jarayonida talabalarda vatanparvarlik tuygusini qaror toptirishning maqsad va vazifalariga erishish bilan bog'liq ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish: ma'lumotlarni talabalar so'rovi, o'quv jarayonini kuzatish va tadbirlarni tashkil etish orqali shakllantirish;

5) ma'lumotlar tahlili asosida tarix fanlarini o'qitish jarayonida talabalarda vatanparvarlik tuygusini qaror toptirish texnologiyalari samaradorligini baholash: baholashdan olingan natijalar belgilangan maqsad va vazifalar bilan solishtirish asnosida tahlil qilinadi.


Vatanparvarlik g'oyalarining ahamiyatini tadqiq etgan olim K.Usmonov tahlillariga ko'ra, vatanparvarlik yuksak axloqiylikni namoyon etadigan tuyg'u bo'lib, uning mazmuni Vatanga mehr qo'yish, Vatanni himoya qilish, uning havfsizligi va yaxlitligini ta'minlashga bevosita va bilvosita mas'ullik orqali mustahkamlanadi³. Shuningdek, o'z mamlakatidagi boshqa odamlarni qo'llab-quvvatlash va hurmat qilish muhimligini ko'rsatish mumkin. Bunga talabalar jamoa bo'lib ishlaydigan turli xil intellektual musobaqalar orqali erishish mumkin. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash: oila, do'stlar va jamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlanish talabalarga o'z mamlakatlari va madaniyatini hurmat qilishni o'rganishga yordam beradi.

Talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda jismoniy faollik muhim o'rin tutadi. Sport va jismoniy mashqlar intizom, chidamlilik va qat'iyatni shakllantirishga yordam beradi va salomatlikni mustahkamlaydi. Aqliy va jismoniy faollik milliy o'zlikni shakllantirishga yordam beradi. Mamlakatimizning sport an'analari bilan yaqindan tanishish, milliy musobaqalarda qatnashish o'z millatiga daxldorlik tuyg'usini kuchaytirishga, vatanparvarlikni oshirishga xizmat qiladi. Aqliy va jismoniy

³ Usmonov K. O'zbek xalqi ma'naviy-axloqiy merosida vatanparvarlik g'oyalarining talqini: Fals. dok. (PhD) dissertatsiyasi. - Toshkent, 2017. – B.150.

faollik talabalarni vatanparvarlik va ideallarni, zarur bo'lgan sifat va ko'nikmalarni takomillashtirishga yordam beradi. Shunday ekan, harbiy tarix fanini jismoniy tarbiya fani bilan integratsiyalab o'qitishning amaliy mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari va masalaning ilmiy-pedagogik muammo sifatidagi tadqiqidan kelib chiqqan holda talabalarni vatanparvarlik tuyyg'usini qaror toptirish muammosining ustuvor yo'nalishlari aniqlashtirilgan (1-rasm).



1-rasm. Talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ustuvor yo'nalishlari

Talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash yaxlit pedagogik jarayon bo'lib, u oliy ta'lim muassasalari, sport muassasalari, nodavlat tashkilotlari, "Yoshlar ittifoqi"ning bo'linmalari, oila kabi sub'ektlarning maqsadga muvofiq hamkorlikdagi tizimli ta'limiy va tarbiyaviy faoliyati natijasidir. Mazkur jarayon harbiy tarix dars mashg'ulotlari, turli to'garaklar va musobaqalariga tayyorgarlik ko'rish va unda ishtirok etish, mustaqil aqliy va jismoniy sifatlarini oshirishga qaratilgan mashg'ulotlar, ekskursiyalar va turistik sayohatlar kabi shakllarni o'zida birlashtiradi.

Urushlar va harbiy san'at tarixi talabalarda Vatanni himoya qilishdek muqaddas kasbga faxrlarini oshirish bo'yicha tarbiyalashda, ko'pgina xalqlarning urushlari tajribalarini, avvalom bor, o'zbek xalqining milliy mustaqillik uchun kurashlari tarixini, uning markazlashgan davlatni barpo etishdagi urushlardagi an'analarini chuqur o'rganish uchun xizmat qiladi. Talabalarni vatanparvarlik tuyyg'usini qaror toptirish uchun zarur bo'lgan ijobiy qadriyatlar va fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan turli usullar va texnologiyalarning kombinatsiyasiga asoslanadi.

Tadqiqotda talabalarda harbiy tarix fanlarini o'qitish jarayonida vatanparvarlik tuyg'usini qaror toptirishning nazariy yondashuvlari aniqlashtirilgan. Ular quyidagilar:

Ijtimoiylashtirish yondashuvi: bu yondashuv vatanparvarlik va axloqiy madaniyatning ijtimoiylashuv jarayonida shakllanishini ta'kidlaydi. Ijtimoiylashtirish oilada, maktabda, jamiyatda ta'lim va tarbiya orqali sodir bo'ladi. Shuning uchun vatanparvarlik va aqliy faoliyat jarayonlarida ijtimoiylashuvni ta'minlash kerak.

Iqtisodiy yondashuv: bu yondashuv aqliy va ta'lim va tarbiya jarayonida vatanparvarlikni rivojlantirishda mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Iqtisodiy rivojlanish darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, vatanparvarlik tuyg'usi rivojlanganligidan dalolat beradi.

Psixologik yondashuv: ushbu yondashuv vatanparvarlik va tarix fanlarining psixologik xususiyatlari bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Masalan, o'z-o'zini hurmat qiladigan, intizomi yuqori bo'lgan insonlarda aqliy va jismoniy faollik va vatanparvarlik tuyg'usi takomillashishga moyillik kuchli bo'ladi. Shunday ekan, vatanparvarlik va harbiy tarix fani integratsiyasida shaxsning psixologik xususiyatlarini hisobga olish zarur.

Kompleks yondoshuv: vatanparvarlik va harbiy tarix fanini kompleks tarzda olib borilishi nazarda tutadi. Masalan, intellektual mashqlarni vatanparvarlik tadbirlari doirasida olib borish.

Harbiy tarix fanini o'qish jarayonida talabalarda vatanparvarlik tuyg'usini qaror toptirishda qo'llash mumkin bo'lgan ko'plab pedagogik texnologiyalar mavjud. Tadqiqotda talabalarni ta'lim jarayonida tarbiyalash texnologiyalari aniqlashtirildi. Ular quyidagilardir:

1) Individual yondashish texnologiyasi: har bir talabaning o'ziga xos xususiyatlari, ehtiyojlari va qobiliyatlari mavjud. Individual yondashuvdan foydalanganda o'qituvchi har bir talabaning individual ehtiyojlarini qondiradigan intellektual mashqlar dasturini ishlab chiqishi lozim bo'ladi;

2) O'yin texnologiyasi: o'yinlar va musobaqalar talabalari, ayniqsa, aqliy va jismoniy mashqlarni yoqtirmaydiganlarda katta rag'batni paydo qiladi. O'yinlar va musobaqalar jamoaviy ruhni rivojlantirish, jamoada ishlashni o'rgatish va yetakchilik fazilatlarini rivojlantirish imkonini beradi.

Harbiy tarix, harbiy san'ati orqali talabalarda vatanparvarlik tuyg'usini qaror toptirish bo'yicha qadimgi dunyo mamlakatlari tajribasi global aspektda tadqiq etilgan. Bunda qadimgi Misr, Mesopotamiya, Eron kabi mamlakatlarning harbiy tarixi, jang san'atlari, Vatan mudofaasi va askarlarni ruhlantirish borasidagi ishlari tahlil qilingan. Umuman, harbiy san'at tarixi muammosini global aspektda o'rganish vatanparvarlik masalasi bu tarixan takib topgan va umuminsoniy muammo ekanligi haqidagi xulosani chiqarishga imkon beradi.

Oliy ta'limning muhim elementlaridan biri talabalarda vatanparvarlikni tarbiyalash bo'lib, u talabalarda ma'naviy fazilatlarni shakllantirishga yordam beradi. Harbiy tarix fanini o'qish jarayonida tashkil qilinadigan sport-sog'lomlashtirish va intellektual musobaqalar talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim bo'lgan quyidagi

psixologik-pedagogik jihatlar bilan xarakterlanadi: *o'z mamlakati va milliy madaniyati bilan faxrlanish tuyg'usini shakllantirish; boshqa madaniyatlarga hurmatni rivojlantirish; mas'uliyat va intizomni shakllantirish; jamoaviy ruh va hamkorlikni rivojlantirish*. Ushbu jihatlar tadqiqotda batafsil tavsiflangan.

Talabalarni tarixiy tafakkur orqali vatanparvarlik tuyg'usini qaror toptirish o'quv jarayonining muhim tarkibiy qismidir. Ushbu muammoni hal qilish uchun bir nechta omillar mavjud bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

birinchi omil sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish bo'lib, talabalarining sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini oshirish, jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish uchun harbiy tarix fani doirasida o'tkaziladigan sport tadbirlaridan foydalanishni o'z ichiga oladi;

ikkinchi omil muzeylar va tarixiy joylarga ekskursiyalar uyushtirish asosida talabalarda o'z mamlakatini yaxshiroq tushunishga, o'z millati bilan faxrlanish tuyg'usini shakllantirish imkonini yaratadi;

uchinchi omil talabalarining mamlakatimiz mudofaasi bilan bog'liq amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishlarini ta'minlash, mamlakat xavfsizligining naqadar muhimligini anglab yetishlari uchun shart-sharoitlar yaratishni anglatadi;

to'rtinchi omil mamlakat tarixidagi muhim sana va voqealarga bag'ishlangan tadbirlarni tashkil etishni o'z ichiga oladi.

Tadqiqotda ushbu omillar tahlil qilingan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Talabalarda vatanparvarlik tuyg'usini qaror toptirishning amaliy-texnologik tizimi**" deb nomlanadi va unda talabalarda harbiy tarix fanini o'qitish orqali vatanparvarlik tuyg'usini qaror toptirishning shakl va usullari aniqlashtirilgan, talabalarda harbiy tarix fanini o'qitish orqali vatanparvarlik tuyg'usini qaror toptirishning pedagogik modeli ishlab chiqilgan va globallashtirish davrida talabalarda vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalash texnologiyasi takomillashtirilgan.

Tadqiqotda talabalarda harbiy tarix fanini o'qitish orqali vatanparvarlik tuyg'usini qaror toptirishning ta'limiy mazmuni aniqlashtirildi. U quyidagilardan iborat:

- fanni o'qish jarayonida talabalarni O'zbekiston Respublikasiga, xalqi va Prezidentiga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga Vatan himoyasi sharaflari va muqaddas burch ekanini chuqur singdirish;

- qadimiy tariximiz va madaniyatimiz, jonajon Vatanimizning mustaqilligi va ravnaqi yo'lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib bo'lish tuyg'usini shakllantirish, milliy armiyamizning qudrati va salohiyati sog'lom avlodga bog'liqlik jihatlarini ochib berish;

- vatanparvarlik har bir talaba uchun muqaddas burch ekanligi haqidagi tushuncha hamda bu boradagi nazariy-Amaliy ko'nikmalarni mustahkamlash;

- talabalarni yon-atrofimiz va jahonda ro'y berayotgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda yondashish ko'nikmalarini, turli ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish;

- Vatan uchun har qanday murakkab vaziyatlarda tezkor va mustaqil qaror qabul qilish;

- O'zbekiston manfaatlarini hayotning barcha jabhalarida, har bir qadamda himoya qilishga tayyor turish, yurt uchun fidoyi bo'lish – bu bugungi kun talabi ekanini hayotiy misollar va ta'sirchan vositalar bilan talabalar ongiga singdirib borish maqsadga muvofiqdir.

Mazkur tamoyillar orqali pedagogik jarayonni tashkil qilish uning asosiy sub'ektlarini aniqlash imkonini beradi. Ular quyidagilar:

- *davlat va mahalliy hokimiyat organlari;*
- *oila; - umumiy o'rta ta'lim va professional ta'lim muassasalari;*
- *ommaviy axborot vositalari;*
- *milliy va umumbashariy qadriyatlar, madaniyat, adabiyot, san'at;*
- *madaniyat va istirohat bog'lari.*

Talabalarda harbiy tarix fanini o'qitish orqali vatanparvarlik tuygusini qaror toptirishning asosiy tamoyillari mazkur jarayonning ilmiy jihatdan asoslangani, uning muntazamligi, ta'lim-tarbiya va amaliyotning o'zaro uyg'unligi, tarixiylik va zamonaviylikning uzviy bog'liqligi bilan ifodalanadi. SHuningdek quyidagi tamoyillar uning asosini tashkil qiladi: *ilmiylik; tarixiylik; uzluksizlik; aniqlik va tezkorlik; muntazamlilik; aksiologik; tizimlilik; faollik; ta'lim-tarbiya ishlarining uyg'unligi; tarbiya jarayonining izchilligi; jismoniy faoliyat jarayonlarida vatanparvarlik tarbiyasida erishilgan ijobiy natija va yutuqlarga tayanish* tamoyillari kabilar.


Talabalarda harbiy tarix fanini o'qitish orqali vatanparvarlik tuyg'usini qaror toptirish usullari ularda zarur hayotiy bilim, ko'nikma, mahorat va mustahkam irodani, jumladan, yuksak ma'naviy-axloqiy, fuqarolik fazilatini shakllantirishga qaratilgan, ularning ongi, ruhiyati va faoliyatiga ta'sir ko'rsatadigan usul va uslublarni anglatadi. Tadqiqotda quyidagilar talabalarni ta'lim va tarbiya jarayonida vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy usullari sifatida e'tirof etiladi:

- ishontirish;
- mashq qildirish va mustaqil ishlash;
- kuzatish;
- rag'batlantirish;
- o'rnak ko'rsatish, shaxsiy namuna va boshqalar.

Talabalarni ta'lim va tarbiya jarayonida vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalash turli shakllarda, jumladan, savol-javob kechalari, kitobxonlik, sport musobaqalari, harbiy soha vakillari bilan uchrashuvlar, madaniy meroslarni bilishga oid sayohatlar uyushtirish, turli musobaqa va tanlovlarda g'oliblikni qo'lga kiritgan shaxslar bilan uchrashuvlar tashkil qilish, bahs-munozaralar, viktorinalar, urush va mehnat faxriylari bilan davra suhbatlarini tashkil qilish, to'plangan ilg'or tajribalarni o'rganish va ommalashtirish hamda boshqa shakllarda tashkil etiladi. Bunday shakllar vatanparvarlikka oid ma'naviy-ma'rifiy ishlarning rang-barangligini ta'minlaydi.

Dissirtatsiyada ta'kidlanishicha, zarur pedagogik shart-sharoitlar yaratilmas ekan, talabalarni vatanparvarlik tuyg'usini qaror toptirish jarayoni samarali amalga oshmaydi.⁴ Shuning uchun ham tadqiqotimiz davomida tarixiy fanlarni o'qitish jarayonida vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalash tuzilmasini ishlab chiqdik (2-rasm).


⁴ Nasridsinov F. «Kamolot va ma'naviyat sabokdari». Toshkent., - «Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti» - 1998 y. B. 65



2-rasm. Talabalarda harbiy tarix fanini o'qitish jarayonida vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalash jarayoni tuzilmasi

Modellashtirish pedagogik tadqiqotlar uchun eng ko'p qo'llaniladigan ilmiy-tadqiqot metodlaridan biri hisoblanadi. Model – bu real ob'yekt yoki narsa-hodisalarni ideallashtirish asosida yangi andozasini yaratishdir. Aniqroq qilib aytganda, model har doim o'rganilayotgan jarayon yoki hodisaning reduksiyasi (ya'ni soddalashtirilgan ko'rinishi)ni o'zida ifoda etadi. Talabalarni ta'lim va tarbiya jarayonida vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni modellashtirish shu paytgacha ishlab chiqilgan modellarni o'rganishni taqozo etadi. Tadqiqot doirasida talabalarda harbiy tarix fanini o'qitish orqali vatanparvarlik tuyg'usini qaror toptirishning pedagogik modeli ishlab chiqilgan (3-rasm).

Ushbu model ilmiy modellashtirishning izchillik, universallik, ilmiylik va normativlik tamoyillari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, dissertatsiyada uning batafsil tavsifi berilgan.



3-rasm. Talabalarda harbiy tarix fanini o'qitish orqali vatanparvarlik tuyg'usini qaror toptirishning pedagogik modeli

Bugungi globallashuv jarayonida Vatan va vatanparvarlik, millat va millatparvarlik tushunchalari har doimgidan-da muhimroq ahamiyat kasb etmoqda. Har bir jamiyat uchun o'zlikni saqlash, yot ta'sirlardan himoyalaniish, mafkuraviy va g'oyaviy xurujlar ta'siridan ihotalanish bilan bog'liq yangi muammolar paydo bo'ldi. Bunday sharoitda yoshlarning mafkuraviy immunitetini oshirish, aldanchi "jilvalari" bilan o'ziga tortayotganyot mafkuralar ta'siriga tushib qolishdan asrash eng dolzarb masalalardan biridir.

Bugungi globallashuv sharoitida o'zga davlatlarning hududiga kirmasdan mafkuraviy xurujlar vositasida siyosiy beqarorlikni yuzaga keltirish va oqibatda iqtisodiy, siyosiy, harbiy va boshqa ko'rinishdagi qaramlikni yuzaga keltirish bilan bog'liq tajovuzlar ko'paymoqda. Bunday sharoitda yoshlar ma'naviyatini buzg'unchi mafkuraviy xurujlardan himoya qilishning eng muhim sharti bu ularda mafkuraviy immunitetni shakllantirishdir. O'zbekiston sharoitida bu quyidagi vazifalarning amaliy ijrosida ko'zga tashlanadi:

- yoshlarni milliy g'oya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga Vatan himoyasi sharaflari va muqaddas burch ekanini chuqur singdirish;

- qadimiy tariximiz va madaniyatimiz, jonajon Vatanimizning mustaqilligi va ravnaqi yo'lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib bo'lish tuyg'usini shakllantirish, milliy armiyamizning qudrati va salohiyatiga bo'lgan ishonchni kuchaytirish;

- milliy armiyamizga jismonan baquvvat va ma'nan yetuk yoshlar zarurligi, harbiy xizmat har bir O'zbekiston fuqarosi uchun muqaddas burch ekani haqidagi tushunchani hamda bu boradagi nazariy-Amaliy ko'nikmalarni mustahkamlash;

- yoshlarda yon-atrofimiz va jahonda ro'y berayotgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda yondashish ko'nikmalarini, turli ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish;

- har qanday murakkab vaziyatlarda tezkor va mustaqil qaror qabul qilish, zamonaviy harbiy-texnika vositalaridan samarali foydalanish malakasiga ega yoshlarni tarbiyalash;

- O'zbekiston manfaatlarini nafaqat harbiy sohada, balki hayotning barcha jabhalarida himoya qilishga tayyor turish, yurt uchun fidoyi bo'lish — bu bugungi kun talabi ekanini hayotiy misollar va ta'sirchan vositalar orqali yoshlar ongiga singdirib borish.

Globalashuv sharoitida yuz berishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarga qarshi talaba-yoshlarni ma'naviy tayyorlash o'zining pedagogik mohiyati va imkoniyatlariga muvofiq aqliy va jismoniy faoliyat sharoitida qo'llanilishiga qarab amalga oshiriladigan axloqiy va irodaviy tarbiya jarayoni hisoblanadi. Bu esa talabalardan kuchli irodani talab qiladigan mashaqqatli va murakkab faoliyatdir. Kuchli iroda, maqsadlari sari intilish, tashabbuskorlik va sabotlilik fazilatlarini tarbiyalash talabani intellectual faoliyati jarayonida ajralmas qismini tashkil qiladi.

Talabalarni vatanparvarlik tuyg'usini qaror toptirishda quyidagi ijtimoiy-pedagogik jihatlar inobatga olinishi zarur:

